Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317073

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ahmedov D.Q. Ijtimoiy ta’minot huquqi. Darslik. –T. TDYUI nashriyoti, 2008. 406 бет.
2. Allayorov Sh., Toshmuxamedova D., Davlat pensiya ta’minoti.O‘quv qo‘llanma.-Toshkent, T.:Iqtisod-Moliya 2015.-248 b; 83
3. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 280.
4. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011.472 b.
5. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. - T.:«IQTISOD-MOLIYA». 2013.-112 b.;

Internet saytlari:

6. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi)
7. www.treasury.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi);
8. www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali);
9. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
10. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
11. www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasi);

MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA BANK, SOLIQ, SUG’URTA TASHKILOTLARINING O‘RNI VA ROLI

Xasanova Guljamol Botirali qizi
Andijon Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

Mamalakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tijorat banklarining yangi elektron xizmatlariga yanada talab ortmoqda. Aholi o’rtasida bank ofislariga bormasdan, oddiygina telefon, komputer va boshqa texnologiyalar orqali ko’plab amaliyotlar bajarishlari ommalashgan. Istalgan bankning mobil ilovasi orqali yoki rasmiy saytiga kirib kerakli ma’lumotga ega bo’lish, to’lovlar amalga oshirish, kreditlar rasmiylashtirish, omonotlar ochish va shikoyat yoki arizalarini yo’lllash mumkin.

Bugungi kunda barcha ma’lumotlar raqamalashtirilganligi tufayli, oldin ma’lum muddat kutib turiladigan operatsiyalar bir zumda amalga oshirilmoqda.

Bu axborot-komunikatsiyalarning shiddat bilan hayotimizga kirib kelishi bilan barcha sohalarda shu jumladan moliyaviy xizmatlar bozorida ham keskin raqobatni kuchaytirmoqda.

Published: 28.03.2024

Cite this article: Xasanova Guljamol Botirali qizi (2024). Moliya tizimini rivojlantirishda bank, soliq, sug’urta tashkilotlarining o‘rni va roli. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317073

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida ham bank tizimini yanada rijovlantirish hamda axborot komunikatsiyalarini bank sohasida yanada qo‘llashni kuchaytish hamda zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy vazifalar belgilab olingan ular quyidagilardir:[6]

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish;
- avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyerlaridan keng foydalanish;
- bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni keng joriy etish (fintex, raqamli bank).

Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan:

- bank tizimida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki natijasida moliyaviy va inson resurslaridan samarasiz foydalanilayotganligi, ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sohalar va davlat ulushiga ega korxonalarga bozor stavkalaridan kam bo‘lgan stavkalarda kreditlar ajratuvchi an’anaviy “taraqqiyot banklari” vazifasini bajarishi;
- kreditlashning yuqori sur’atlarda o‘sib borayotganligi va buning natijasida banklarning barqarorlik darajasini ifodalovchi likvidlilik va kapital yetarlilik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etayotganligi;
- imtiyozli kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi natijasida moliya bozorida narx signallarining noto‘g‘ri shakllanishi, shuningdek pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlarining ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi;
- yuqori darajadagi dollarlashuv, shuningdek kredit va depozitlarning yirik korxonalar va iqtisodiyotning alohida sohalarida jamlanganligi (konsentratsiyasi) natijasida bank tizimining valyuta, kredit va likvidlilik xatarlariga bardoshliligining zaifligi;
- davlat ishtirokidagi banklar biznes-modellarining asosan korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlarining roli sustligi, shuningdek innovatsiyalar va axborot tizimlarining yaxshi rivojlanmaganligi sababli moliyaviy ommaboblik darajasining pastligi tizimda tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

[6]2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to’g’risida “ gi strategiyasi 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son

Mamlakatimizda so’ngi yillarda bank xizmatlarinining sifati va ko’lamini oshirish bo’yicha ko’plab qonun va qarorlar ishlab chiqildi va bazilariga o’zgartirishlar kiritildi:

1. «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida» gi qonun (yangi tahrirda);
2. «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida» gi qonun (yangi tahrirda);
3. “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida” gi qonun;
4. “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi (PF-5177-son, 02.09.2017);
5. “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi (PQ-3270-son, 12.09.2017);
6. “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” (PF-5992, 12.05.2020) farmonlar.

Valyuta bozori liberallashtirilishi hisobiga naqd pul bilan bog‘liq muammolar yechildi bu esa bankomatlar infratuzilmasi hamda zamonaviy to‘lov tizimlarin ijoriy etishga sharoit yaratdi,aholi va tadbirkorlik sub’ektlari uchun bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaydi, mijozlar bilan ishlash tizimi o‘zgarmoqda, zamonaviy bank xizmatlari turlari ko‘paytirildi va raqamlashtirilmoqda,banklarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayliklar yaratish maqsadida bank xizmatlari markazlari tashkil etilmoqda.

Biz yuqoridagi ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Banklarning ish faoliyatidan tashqari yuklamalar hali hanuzgacha davom etmoqda. Banklarning faoliyatiga aralashuvlar ham davom etmoqda.
2. Tashkilotlar hamda mahalliy hokimyat organlariga banklarni ham tadbirkorlik subyektlaridan biri ularning asosiy vazifalari esa tijorat ekanliklarini sindirish qiyin bo’lmoqda.Banklarning rivojlanishi uchun mos tijoriy loyihalar moliyalashtirilmayapti.
3. Bank xodimlarining huquq va majburiyatlari va huquqiy ongini yanda oshirish uchun tushuntirish ishlarini amalga oshirish va shuningdek ish vaqtida majburiy yuklamalarga qonuniy yo’l bilan qilmaslikni tushuntirish.
4. Aholini ham moliyaviy savodxonligini kuchaytirish hamda turli xil firibgarlarga aldanib qolmasliklari uchun tushuntirish ishlarini amalga oshirish.
5. Bank ofislarida turli xil navbatlarni kamaytirish maqsadida online va oflayn navbat olish imkoniyatlarini yaratish.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1.”2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to’g’risida “ gi strategiyasi 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son

2. I.Aliqulov, Z.Davronov. Innovatsion faoliyat davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy davlatlar tajribasi.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali.№ 3, may- iyun, 2015

DEVELOPMENT OF BANKING FINANCIAL SYSTEM THROUGH INTRODUCING INNOVATIVE BANKING SERVICES.

Usmonjonov Shohijahon Abdujalil o’g’li
AndMI, Iqtisodiyot fakulteti,
Menejment yo’nalishi, IV bosqich talabasi,
shohijahonusmonjonov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada banklar faoliyatiga innovatsion bank xizmatlarini joriy etish orqali bank moliya tizimini rivojlantirish bo’yicha tushunchalar, yo’nalishlar haqida so’z yuritilgan. Maqola so’nggida xulosa va fikr-mulohazalar berib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *bank faoliyati, moliyaviy texnoloqiyalar, innovatsion bank xizmatlari, modernizatsiyalash, yangicha yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье говорится о концепциях и направлениях развития банковской финансовой системы путем внедрения инновационных банковских услуг в деятельность банков. В конце статьи приводятся выводы и мнения.*

Ключевые слова: *банковская деятельность, финансовые технологии, инновационные банковские услуги, модернизация, новый подход.*

Abstract. *This article talks about concepts and directions for the development of the banking financial system through the introduction of innovative banking services into the activities of banks. At the end of the article, conclusions and opinions are given.*

Key words: *banking activity, financial technologies, innovative banking services, modernization, new approach.*

Relevance of the topic. Innovative banking services are explained by facilitating the interaction of customers, that is, business entities and individuals with the bank. The role of innovative marketing technologies in the formation and development of the potential of economic entities and individuals in the country for innovative banking services is very large. A new approach to understanding the innovative marketing strategy is based not on the search for an innovative product, but on the fact that there is innovation in the business environment, but on simplifying the use of this or that innovative development. It creates the need to revise the requirements of the banking security standard of commercial banks, fully fulfilling the requirements of the most perfect standard in international banking practice, and implement the innovations. One of the main factors of the growth of the modern economy is the development of digital technologies in the financial market. Digitization covers individual and complex industries, resulting in significant savings in human resources and all related costs,